

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA ONA TILI VA ADABIYOT  
DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

*Mirzayeva Xikmatoy*

*Uchqo'rg'on tumani 15- maktab til va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya** Ushbu ilmiy maqolada bugungi kunda umumiy o'rta ta'lif maktablarida ona tili va adabiyot darslarini tashkil etish va samaradorligini oshirishning innovatsion loyihalari, hamda ushbu jarayonda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar xususidagi ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** ilg'or metodlar va pedagogik texnologiyalar, og'zaki va yozma nutq, sifatli ta'lif-tarbiya berish, ta'lifning samaradorligini oshirish masalasi, muammoli vaziyat.

Ona tili bu har bir millatning ma'naviyatidir. Har bir millatning yurakdan gapiradigan ona tilidir, u tarix Mulki va uni to'liq asrab avaylash ona tili mutaxassislari va o'qituvchilar mas'uliyatidir va uni rivojlantirish millatning yuksalishi demak. Maktablarda ona tilni o'qitilishi, o'quvchilarning har tomonlama mukammal bilim olishlari uchun jiddiy e'tibor berish talab etilmoqda. Bugungi kun talablari ichida zamonaviy texnologiyalashayotgan zamonda yangi darsliklar, turli fanlarga oid ko'rgazmalar va ko'rsatmali vositalar, elektron kitoblar hamda turli internet saytlari yaratilmoqda. Ona tili fanini umumta'lim maktablarida o'qitilishiga e'tibor kuchaydi. Ona tili fanini maktab o'qituvchisi olib borishda tayyor darlikdagi ma'lumotlarni shunaqasiga o'quvchilarga berib bo'lmaydi. Bu darslikdagi ma'lumotlarni o'quvchilarning yosh hususiyatlaridan kelib chiqib, ularga moslashtirib pedagogic kompetenciyalarni yo'lga qo'yish bilan ta'lif beradi. O'qituvchi bir hillik bilan cheklanib qolmasdan ta'lif sifatini ta'minlay oladigan zamonaviy texnologiyalar bilan o'qitish usullari orqali o'quvchini mavzuga jalg etish lozim. Bu texnologik vazifalar

o'qituvchilarning kasb mahorati va o'quv jarayoniga qo'shgan shaxsiy hissasi, ta'limning yuqori samaradorligi hamda sifati, o'z bilimini muntazam takomillashtirib borishi, kasb mahorati va malakasini o'stirishi, o'qituvchi tomonidan ilg'or metodlar va pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llashi uchun yaratilgan imkoniyatlar[3] Ona tili darslarini tashkil etishda innovatsion, noan'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanish mumkin bo'lib, darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda, shuningdek ona tili o'qituvchisining pedagogic tajribasi, shu tajriba asosida pedagogic kompetentsiyasi va mahorati asosiy o'qinni egallaydi. Dars jarayonida ta'lim metodlarini darsning mazmunidan kelib chiqib tanlanadi va o'quvchilarning xarakteri, iqtidori va qiziqishlarini ham hisobga olib darsni tashkil qilib har bir dars jarayonida darsda ijodiy rivojlantirish paydo qilinishi lozim, bu esa darsda innovatsiya hosil qilish bo'lib o'quvchilarning zerikishini oldini oladi.Umumta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqining o'sishida, qolaversa mavzularni oson tushunishlariga,bilim va ko'nikmalarini yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.O'quvchilarga ona tilini o'rgatish, ularni tarbiyalash va har doim rivojlantirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariyas asoslanib, barcha yaqin, o'zaro bog'liq fanlar tavsiyalariga asoslanib, ona tili o'qitish metodikasi o'z tamoyillarini ishlab chiqadi. Dunyoning barcha rivojlanayotgan davlatlari (hatto bir qator rivojlangan davlatlar ham) hozirgi globllashuv vaqtda o'z oldiga hamma bolalarni umumiyl o'rta ta'lim jarayoniga to'liq qamrab olish masalasini qo'ygan bir vaqtda, mustaqil O'zbekistonimizda ushbu muammo allaqachon muvaffaqiyatli hal etilgan bo'lib, uzuksiz ta'limda masofaviy ta'limni qo'llab, o'quvchilar bilimini baholashda raqamlı texnologiyalardan samarali foydalanmoqda. Bugungi kunda navbatdagi ustuvor vazifa sifatida, sifatli ta'lim-tarbiya berish, ta'limning samaradorligini oshirish masalasi qo'yildi. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo`lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo`lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallahsga o'rgatilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni

egallayotgan bilimlarini o`zlari qidirib topishlariga, mustaqil o`rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishlariga o`rgatadi. O`qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo`naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lif jarayonida o`quvchi asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun umumta'lim maktablarida zamonaviy o`qitish metodlari interaktiv metodlar, innovation texnologiyalarning o`rni va roli benihoya kattadir. Bu metodlarning o`ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o`quvchilarning birgalikda faoliyat ko`rsatish orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o`ziga xos xususiyatlarga ega.

Darslarni innovation texnologiyalardan foydalanish asosida tashkil etish ijobjiy natija beradi, chunki o`qituvchi innovation faoliyat yuritgandagina ta'lif mazmuni o`zgaradi. O`quv mashg`ulotlari samaradorligini oshirishda ona tili va adabiyot darslariga interfaol metodlar va ta'limiy o`yinlardan foydalanish o`quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan bir qatorda ularni fanga bo`lgan qiziqishlarini ham orttiradi. Quyida biz ana shunday metodlardan ayrimlari haqida fikr yuritib, ulardan namunalar keltiramiz:

Mashg`ulotni o`tkazish tartibi muammo o`zi nima degan savol asosida mavzuga kirib boriladi. Muammo bilish va bilmaslikning o`rtasi bo`lib, bunda muammoning dolzarbliyi va o`ziga xosligi nazarda tutiladi. Bir mavzuga oid qator muammolar olinib, undan eng dolzarblari ajratiladi. Mashg`ulotda o`qituvchi ishtirokchilarni guruhlarga ajratib, darsni o`tkazish tartib-qoidalari va talablarini tushuntiradi. Chunki, ushbu texnologiyani amalga oshirish jarayoni bosqichli ketma-ketlik asosida olib boriladi.

Ishtirokchilar dars davomida yakka, juftlikda va kichik guruhda faoliyat olib borishlari tushuntiriladi. Masalan, 6-sinf ona tili darsligida berilgan "Shakl yasovchi qo`shimchalar" mavzusini o`qitishda quyidagi muammoni aniqlash texnologiyasidan foydalanish tavsiya qilinadi:

Muammo turi	Muammoning kelib chiqish sababi	Muammoning yechimi
-------------	------------------------------------	--------------------

Otlarda egalik va fe'llarda shaxs-son shaklini qanday ajratish mumkin	Chunki har ikkala shakllar ham bir xil ko`rinishda. M.: kitobim, bordim.	Egalik shakllari otlarga bog'lanib, narsabuyumning egasini bildiradi. Shaxs-son shakl fe'llariga qo'shilib, ishharakatning bajaruvchisini bildiradi.
---	--	--

Muammoli ta'larning o`ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, u o`quvchiga qo`yilgan muammo yechimini topish uchun ilmiy-ijodiy tafakkur yuritish, jadal va mantiqli fikrlash, so`z va atamalar, asar g`oyasi hamda ma'nosini o`zaro qiyoslash, o`zi uchun eng to`g`ri yechim tanlash imkoniyatlarini beradi. Bu texnologiya o`quvchining imkoniyatlaridan o`zaro uzviylik va uzlusizlikdan foydalanish, izchil va mantiqiy fikrlash darajasini yaxshilaydi. O`rganuvchi sub'ektning o`ziga bo`lgan ishonchini mustahkamlanishiga olib keladi, xususiy intellektual iste'dod qirralarini ochishga yo`naltiradi.

*Texnologyaning afzalliklari.* O`quvchilar hamkorlikda faoliyat olib boradilar. Muammoni aniqlash ko`nikmalari shakllanadi. Diqqatni idrok qilishni. mantiqiy fikrlashni o`rganadi. Muammolar ichidan dolzarbini ajratib olishni o`rganadi.

*Kamchiliklari.* Vaqt ko`p sarflanadi. Barcha ishtirokchilarning fikrlari to`liq inobatga olinmasligi mumkin. O`zaro bir to`xtamga kelish uchun ortiqcha mulohazalar qayd etilishi kuzatiladi va h.k.

*Muammoli vaziyat va muammoning bayoni.* Tafakkur - inson oldida turgan masala va muammolarni yechishga olib keladigan idrok bo`lib, tafakkur muammoli vaziyatdan kelib chiqadi hamda muammoni yechishga qaratilgan bo`ladi.

*Muammoning qo`yilishi.* Muammonining bir necha yechim yo`llari mavjud ekanligi va ular ichidan eng optimal variantini tanlash shuningdek, muammoning yechimini topish.

*Muammoli vaziyatni shakllantirish tamoyillari.* Muammoli o`quv toshiriqlari. Muammoli vaziyatlarni yaratish metodi orqali o`quvchilarni turli muammolardan chiqib ketish yo`llarini axtarishga, kezi kelganda ana shu muammoning yechimini topishga yo`naltirish lozimligi tushuntiriladi. Masalan, G.G`ulomning

"Mening o`g`rigina bolam" hikoyasi asosida o`quvchilarni asar matnidan kelib chiqib, muammoni topishga, muammoni keltirib chiqargan sabablar hamda ushbu muammoni hal etish yo`llari haqida fikrlar bildiriladi. Masalan, hikoyadagi o`g`ri haqiqatan ham o`g`rimi, muammoysi qo`yilsa, ushbu muammoni keltirib chiqaruvchi sabablar - xalqning og`ir hayotga giriftor bo`lishi, mahalliy sharoitning og`irligi, noto`g`ri davlat boshqaruvi, ishsizlik, xalq boyligi huzurini boshqalar ko`rishi, urushning xalqqa yetkazgan zarari, deya mulohazalar bayon etilsa, muammoni hal etish yo`llari - mamlakat aholisini savodxon qilish, yurtni bosqinchilar zulmidan ozod etish, mingboshi, ellikboshi kabi chalasavod rahbarlar o`rniga savodli xalq vakillaridan tayinlash, ishsizlikni bartaraf etish, jamiyatni yanada rivojlantirishga o`z hissasini qo`shish kabilar nazarda tutiladi.

*Muammoli vaziyat yaratish usullari:*

- o`qituvchi o`quvchilarga dars mavzusi bilan bog`liq ziddiyatli holatnitushuntiradi va uni yechish yo`lini topishni taklif qiladi;
- bir masalaga doir turli nuqtai-nazarlarni bayon qiladi;
- hal etish uchun yetarli bo`lmagan, ortiqcha ma'lumotlar bo`lgan yoki savolning qo`yilishi noto`g`ri bo`lgan masalalarni yechishni taklif etadi va boshqalar.

*Muammoli vaziyatni hal etish darajalari:*

- o`qituvchi muammoni qo`yadi va o`zi yechadi;
- o`qituvchi muammoni qo`yadi va uning yechimini o`quvchilar bilan birgalikdatopadi;

- o`quvchilarning o`zлari muammoni qo`yadilar va uning yechimini topadilar.

*Muammoli vaziyatni yechishda qo`llaniladigan usullar:*

- muammoni turli nuqtai-nazardan o`rganish, tahlil qilish;
- solishtirish, umumlashtirish;
- faktlarni aniqlash va qiyoslash;
- vaziyatga bog`liq xulosalar chiqarish;
- o`quvchilarning o`zлari aniq savollar qo`yishi va boshqalar.

*Bu amaliy mashg'ulotda tinglovchilar quyidagi vazifalarni bajarishlari tavsiya qilinadi:*

-O`qituvchilar o`z mutaxassislik fanlari bo`yicha o`zlari tanlagan mavzuda darsni eng maqsadga muvofiq muammoli o`qitish turlaridan foydalanib o`tkazish yuzasidan dars ishlanmasi tayyorlaydilar va uning asosida guruh ishtirokida shu mashg'ulotni qisqa bayon qilib beradilar va tegishli muhokama o`tkaziladi.

-Bunda o`quvchilarning quyidagi masalalar bo`yicha bilim, ko`nikma malakalarini yanada mustahkamlash nazarda tutiladi:

-O`quv fani va darslar mavzusini o`rgatishda ular bilan bog`liq muammoli masalalarni belgilash, ulardan muammoli vaziyatlar hosil qilish va amalda foydalanishni oldindan rejalashtirib borish. O`quvchilarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish. Zarur o`quv vositalarini tayyorlash.

-Muammoli vaziyatdagi mayjud ziddiyatni ko`rsatish, topshiriqni va uni yechish uchun yetarli shartlarni aniq bayon qilish.

-O`quvchilarning muammoni hal etishda yo`l qo`yayotgan xatolarini, ularning sababini va xususiyatini ko`rsatish. O`quvchilarning noto`g`ri taxminlari asosida chiqargan xulosalari oqibatini muhokama etib, to`g`ri yo`lni topishlariga ko`maklashish va boshqalar.

Dars ta'limning mazmuni, metodi va shakli kabi tushunchalar doirasida chegaralanib qolmaydi. Maktabdagagi ta'lim, tarbiya va rivojlanishni pedagog va o`quvchilarni o`zaro hamjihat, hamkorlikdagi faoliyatları orqali amalga oshirishni nazarda tutadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni alohida ta'kidlash joizki, darsning sifati, samaradorligi o`qituvchi tomonidan unga puxta tayyorgarlik ko`rishiga bog`liqdir. Bunda dars ishlanmasining hozirgi zamon ilg`or texnologiyalariga muvofiq holda loyihalanishi alohida o`rin tutadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. / Barkamolavlod – 5. O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1997. 20-29 betlar.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi,- Xalq ta’limi, 1998, 1-sон.
3. “Tilshunoslik atamalarining izohli lug’ati ”. N.Uluqov.Namangan
4. “Darsda hammasi bo`lmasa ham pedagogikaning asosiy qismimarkazlashgan”. (Совершенствование процесса обучения. М. 1971. 149 стр.).